

Toshkent davlat yuridik universitetining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati

1. ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALAR

1.1. Toshkent davlat yuridik universiteti (keyingi o‘rinlarda – universitet) korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ISO 37001:2016 xalqaro standartiga hamda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni joriy etishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

universitet, uning rahbariyati, xodimlarini va talabalarini korrupsion faoliyatga jalb qilish xavfini minimallashtirish;

universitet xodimlarini ularning lavozimidan qat’i nazar, talabalarini, kontragentlar va boshqa shaxslar o‘rtasida har qanday shakl va ko‘rinishdagi korrupsiyani rad etish bo‘yicha universitet siyosati haqida yagona tushunchani shakllantirish;

universitetda qo‘llaniladigan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy talablarini umumlashtirish va tushuntirish;

universitetda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirish.

1.3. Belgilangan maqsadlarga erishish uchun universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilanadi:

korrupsiyaga qarshi faoliyatining asosiy tamoyillarini mustahkamlash;

siyosat doirasini va uning ta’siri ostida bo‘lgan shaxslar doirasini aniqlash;

universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan mansabdor shaxslarini aniqlash;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarning majburiyatlarini belgilash va mustahkamlash;

universitet tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari ro‘yxatini, ularni amalga oshirish (qo‘llash) tartiblarini belgilash;

korrupsiyaga qarshi kurashish siyosat talablarini bajarmaganlik uchun universitet xodimlarining va talabalarining javobgarligini belgilash.

2. QO‘LLASH SOHASI

2.1. Ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish siyosat universitetning faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga va unga chek qo‘yishga qaratilgan ichki normativ hujjat hisoblanadi.

2.2. Ushbu siyosat universitet va uning ixtisoslashtirilgan filiali, universitet qoshidagi yuridik kadrlarni halqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazi hamda akademik litseyning xodim, doktorant, talaba va o‘quvchilari orasida korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida universitetning yuqori axloqiy meyorlarga sodiqligini, shuningdek universitetning xodim, talaba va doctorantlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo‘l quyimaslikni aks ettiradi.

3. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Korrupsiya — bu shaxs tomonidan o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan o‘z shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy manfaatlar olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday ne‘matlarni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir;

Korrupsiyaga qarshi kurashish -O‘zbekiston Respublikasining mahalliy hukumat subyektlarining davlat hokimiyati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning quyidagi vakolatlari doirasidagi faoliyati:

a) korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan korrupsiya sabablarini aniqlash va keyinchalik bartaraf etish (korrupsiyaning oldini olish);

b) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish, ularga chek qo‘yish, fosh etish va tergov qilish (korrupsiyaga qarshi kurashish);

v) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar oqibatlarini minimallashtirish va (yoki) bartaraf etish;

Kontragent — mehnat munosabatlari bundan mustasno, korxonada shartnomaviy munosabatlarga kirishadigan har qanday mahalliy yoki xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs;

Manfaatlar to‘qnashuvi — xodimning (tashkilot vakilining) shaxsiy manfaatlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) uning rasmiy (mehnat) vazifalarini to‘g‘ri bajarishiga ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat va xodimning (tashkilot vakilining) shaxsiy manfaatlari va tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, xodimi (tashkilot vakili) bo‘lgan tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, mulkiga va (yoki) ishchanlik obro‘sigacha zarar etkazishi mumkin.

4. UNIVERSITET KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINING ASOSIY TAMOYILLARI

4.1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasiga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish **quyidagi asosiy prinsiplarga** asoslanadi.

- 1) qonuniylik;
- 2) fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- 3) ochiqlik va shaffoflik;
- 4) izchillik;
- 5) davlat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro hamkorligi;
- 6) korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligi;
- 7) javobgarlikning muqarrarligi.

4.2. Mazkur Siyosatning 4.1-bandida belgilangan prinsiplar bilan bir qatorda universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

a) **universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining amaldagi qonunchilik va umume’tirof etilgan me’yorlarga muvofiqligi tamoyiliga** ko‘ra, korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro shartnomalar, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni va universitetga nisbatan qo‘llaniladigan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi kerak;

b) **universitet rahbariyatining shaxsiy namunasi tamoyiliga** muvofiq, universitet rahbariyati barcha darajadagi korrupsiyaning har qanday shakllari va ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatning axloqiy me’yorini shakllantirishi, o‘z xatti-harakatlari bilan namuna bo‘lishi kerak;

c) **xodimlarni va talabalarni jalb qilish tamoyiliga** ko‘ra, universitet talabalarining va xodimlarini lavozimidan qat’i nazar, korrupsiyaga qarshi standartlar va tartiblarni shakllantirish va amalga oshirishda faol ishtirok etadi;

d) **nol bardoshlik tamoyiliga** muvofiq, universitetda korrupsiyaning har qanday shakl va ko‘rinishiga yo‘l qo‘yilmaydi;

e) **korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining korrupsiya xavfiga mutanosibliigi tamoyiliga** binoan, aniqlangan xavf-xatarlar darajasini hisobga olgan holda universitetning rahbarlari, xodimlari va talabalarini korrupsiyaviy faoliyatga aralashish ehtimolini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi;

f) **xavfni davriy baholash tamoyiliga** ko‘ra, universitet faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlar davriy ravishda aniqlanadi va baholanadi;

g) **kontragentlarni majburiy tekshirish tamoyiliga** muvofiq, universitet kontragentlarni korrupsiyaga nisbatan toqatliligi uchun muntazam ravishda tekshiradi, shu jumladan, ularning korrupsiyaga qarshi o‘z choralari yoki siyosati mavjudligini, ushbu Siyosat talablariga rioya qilishga, shartnomalarga korrupsiyaga

qarshi shartlarni (bandlarni) kiritishga, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini axloqiy yo'lga qo'yish va korrupsiyaning oldini olishda o'zaro yordam ko'rsatishga tayyorligi o'rganiladi;

h) ochiqlik tamoyiliga ko'ra, faoliyatni amalga oshirish uchun universitet tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi qoidalar to'g'risida kontragentlar, hamkorlar va jamoatchilikni xabardor qiladi;

i) doimiy nazorat va muntazam monitoring tamoyiliga binoan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy etilgan standartlar va tartib-qoidalar samaradorligini muntazam monitoring qilinadi, shuningdek ularning bajarilishi nazorat qilinadi;

j) javobgarlik va jazoning muqarrarligi tamoyiliga binoan, universitet xodimlarining mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda, ularning lavozimidan, ish stajidan va boshqa shartlardan qat'i nazar, jazoning muqarrarligi, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish uchun universitet rahbariyatining shaxsiy javobgarligi ta'minlanadi.

5. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATNI QO'LLASH SOHASI VA UNGA BO'YSUNADIGAN SHAXSLAR DOIRASI

5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga taalluqli shaxslarning asosiy doirasi lavozimi va bajaradigan funksiyalaridan qat'i nazar, universitet bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan universitet xodimlari, shuningdek dars mashg'ulotlariga qo'yilgan shaxslar, talabalar, doktorantlar, izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar (keyingi o'rinlarda – talabalar).

5.2. Ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati qoidalari, agar bu universitet tomonidan bunday shaxslar bilan tuziladigan shartnomalarda nazarda tutilgan bo'lsa, universitet o'zlari bilan shartnoma munosabatlari tuzayotgan boshqa jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

6. UNIVERSITETDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH UCHUN MAS'UL BO'LGAN MANSABDOR SHAXSLARI

6.1. Rektor universitetda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan barcha tadbirlarni tashkil etish uchun mas'uldir.

6.2. Rektor belgilangan vazifalardan, faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan, shtat jadvalidan, tashkiliy tuzilmadan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni amalga oshirish uchun mas'ul shaxsni yoki bir nechta shaxslarni tayinlaydi.

6.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslarning asosiy vazifalari:

universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun tavsiyalar tayyorlash;

universitetda korrupsiya xavfini keltirib chiqaradigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash;

universitet xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga qaratilgan nazorat tadbirlarini o'tkazish;

korrupsion xavflarni baholashni tashkil etish;

manfaatlarni ko'zlab yoki boshqa tashkilot nomidan xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari, shuningdek universitet xodimlari, kontragentlari yoki boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha hisobotlarni qabul qilish va ko'rib chiqish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha o'quv tadbirlarini tashkil etish va xodimlarga individual maslahat berish;

nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatli vakillariga korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tashkilot faoliyatini tekshirishda yordam ko'rsatish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatli vakillariga korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish yoki tergov qilish, shu jumladan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda yordam ko'rsatish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlar tashkil etish;

xodimlar uchun individual maslahatlar;

korrupsiyaga qarshi tashviqotni tashkil etishda ishtirok etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish natijalarini baholash va tashkilot rahbariyatiga tegishli hisobot materiallarini tayyorlash.

6.4. Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga quyidagi vakolatlar yuklangan:

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablarini ishlab chiqish va joriy etish ustidan nazoratni amalga oshirish;

xodimlarga va talabalarga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi va korrupsiya bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining ISO 37001 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini ta'minlash;

boshqaruv organi va yuqori rahbariyatga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ishlashi to'g'risida hisobot berish, kerak bo'lganda, qonuniy va me'yoriy muvofiqlikni ta'minlash bo'yicha boshqa funksiyalar.

6.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati korrupsiyaga yoki korrupsiyaga qarshi kurashishni boshqarish tizimiga taalluqli har qanday masala yoki muammoni yuqori darajada ko'rib chiqish zarurati tug'ilgan taqdirda, boshqaruv organi va yuqori rahbariyat to'g'ridan-to'g'ri va darhol kirish huquqiga ega.

7. KORRUPSIYANING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH BILAN BOG‘LIQ UNIVERSITET XODIMLARI VA TALABALARINING MAJBURIYATLARI

7.1. Universitetdagi lavozimi va ish stajidan qat’i nazar, barcha xodimlar, shu jumladan **rahbariyat**, shuningdek **talabalar** o‘z vazifalarini bajarishlari bilan bog‘liq holda:

ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati qoidalariga amal qilish va uning tamoyillari va talablariga qat’iy rioya qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga rioya qilish;

universitetga nisbatan qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

universitet manfaatlarini ko‘zlab yoki universitet nomidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishdan va (yoki) sodir etishda qatnashishdan bosh tortish;

boshqalar tomonidan universitet manfaatlari yoki nomidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga tayyorlik yoki uni sodir etishda ishtirok etish sifatida talqin qilinishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlardan voz kechish;

xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari to‘g‘risida bevosita rahbarga, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni amalga oshirish uchun mas‘ul shaxsga yoki universitet rahbariyatiga darhol xabar berish;

boshqa xodimlar, kontragentlar yoki boshqa shaxslar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar holatlari to‘g‘risida xodimga ma‘lum bo‘lgan ma‘lumotlar to‘g‘risida bevosita rahbarga, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirish uchun mas‘ul shaxsga yoki universitet rahbariyatiga darhol xabar berish;

bevosita rahbarni yoki boshqa mas‘ul shaxsni xodimning manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelishi yoki yuzaga kelishi mumkinligi to‘g‘risida xabardor qilish.

7.2. Universitet rahbariyati o‘z shubhalari to‘g‘risida vijdonan yoki asosli taxminlar asosida javob qaytarishdan qo‘rqmasdan, maxfiy tarzda xabar qilinishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Rahbariyat xodimlarga va talabalarga quyidagi holatlar uchun jazo, kamsitish yoki intizomiy jazo choralari (xususan, tahdid, chetlashtirish, lavozimini pasaytirish, lavozimga ko‘tarilishning oldini olish, boshqa joyga ko‘chirish, ishdan bo‘shatish, qo‘rqitish va ta‘qib qilish yoki boshqa repressiya shakllari) qo‘llanilmasligini ta‘minlash majburiyatini oladi:

1) universitet tomonidan pasaytirilmagan korrupsiya xavfining past darajasidan yuqori deb hisoblagan har qanday bitimni amalga oshirishdan bosh tortish;

2) pora olishga urinish, haqiqiy yoki gumon qilinayotganligi yoki universitetning korrupsiya qarshi kurashish siyosati yoki korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi

talablari buzilganligi to'g'risida vijdonan yoki asosli ishonch bilan qilingan xabarlar (shaxsning o'zi buzilishda ishtirok etgan hollar bundan mustasno).

7.3. Universitetda korrupsiyaning har qanday shakli taqiqlanadi.

7.4. Universitet rahbariyati korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirish majburiyatini oladi.

7.5. Universitet rahbariyati, xodimlari va talabalari korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari bajarilmagan taqdirda qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari haqida xabardor qilinadi.

8. UNIVERSITET XODIMLARINING VA TALABALARNING XULQ-ATVOR STANDARTLARINI JORIY ETISH

8.1. Xodimlar va talabalar o'rtasida korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartlarini joriy etish uchun universitet ishbilarmonlik munosabatlari etikasiga ta'sir qiluvchi va xodimlarning, talabalarning va umuman universitetning axloqiy, vijdonli xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan umumiy qoidalar va tamoyillar belgilanadi.

Bunday umumiy qoidalar va xulq-atvor tamoyillari universitet kengashi tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq kodeksida mustahkamlangan.

9. MANFAATLAR TO'QNASHUVINI ANIQLASH VA BOSHQARISH

9.1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishning asosiy elementlaridan biri universitet faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlashdir.

Xodimlar o'z mehnat majburiyatlarini bajarish jarayonida kelib chiqadigan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va hal qilish tartibini belgilash uchun manfaatlar to'qnashuvi tartibi tasdiqlanadi.

10. SOVG'ALAR VA MEHMONDO'STLIK BELGILARI ALMASHINUVI TARTIBI

10.1. Xodimlarning mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida ularning faoliyatiga uchinchi shaxslarning ta'sirini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi korrupsiyaga qarshi qonunchilik hujjatlari normalarini buzish holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida universitetda sovg'alar va mehmondo'stlik belgilari bilan almashish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

universitet va uning muassasalari xodimlari o'z xizmat majburiyatlarini bajarish jarayonida talaba, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan noqonuniy tarzda biron-bir sovg'alar (shu jumladan tug'ilgan kun munosabati bilan sovg'a, gul va hokazo), shuningdek ish jarayonida mehmondo'stlikning belgilari (misol uchun, imtihon davrida va boshqa paytlarda tushlik va kechki ovkatlarni tashkil etish), qarz,

kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag‘batlantirish vositalarini, naqd yoki naqdsiz pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida moddiy yordam qabul qilishlari taqiqlanadi;

universitet va uning muassasalari uchun ularning xodimlariga rasmiy delegatsiyalar tarkibida, tadbirlarda, jumladan, horijda olingan har qanday sovg‘alar summasidan qat‘iy nazar universitet va uning muassasalari mulkiga o‘tkaziladi;

universitet va uning muassasalari xodimlariga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayramlar (tug‘ilgan kun, bolaning tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni va hokazo) da berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan sovg‘alar xodimning shaxsi bilan bog‘liq sovg‘alar deb tan olinadi.

Bunday sovg‘alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

sovg‘alar ta‘lim muassasalarining kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi;

sovg‘a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bulishi, unda sovg‘a berishga sabab bulgan voqea o‘zining aniq ifodasini topgan bulishi;

qoida tariqasida, sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig‘imlarni hisobga olgan holda) 5 (besh) bazaviy hisoblash mikdordan oshmasligi;

qoida tariqasida, universitet va uning muassasalari bitta xodimi boshka xodimga sovg‘a uchun sarflaydigan harajat summasi, har bir holatda 1 (bitta) bazaviy hisoblash mikdordan oshmasligi kerak.

Shu bilan talabalardan har qanday sovg‘a qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sovg‘ani qabul qilishning qonuniyligi to‘g‘risida shubha tug‘ilgan har qanday hollarda xodim universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga maslahat so‘rab murojaat qilishi mumkin.

11. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI BAHOLASH

11.1. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi universitet xodimlari tomonidan shaxsiy yoki universitet manfaatlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etilishi mumkin bo‘lgan universitet faoliyatidagi jarayon va operatsiyalarini aniqlashdan iborat.

11.2. Korrupsiya xavf-xatarlarni baholash korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining muhim elementidir. Mazkur element korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning universitet faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishini va korrupsiyaning oldini olish uchun ajratilgan mablag‘lardan oqilona foydalanishni ta‘minlash imkonini beradi.

11.3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muntazam ravishda amalga oshiriladi.

11.4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash universitet rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga muvofiq amalga oshiriladi.

12. UNIVERSITET XODIMLARIGA VA TALABALARIGA MASLAHAT BERISH VA ULARNI O‘QITISH

12.1. Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha xodimlarni va talabalarini o‘qitishni tashkil etishda uni o‘tkazish vaqtiga qarab o‘qitishning maqsad va vazifalari, tinglovchilar toifasi, o‘quv turini hisobga olish kerak.

12.2. O‘qitishning maqsad va vazifalari mashg‘ulotlarning mavzusini va shaklini belgilaydi. O‘qitish, xususan, quyidagi mavzularda o‘tkazilishi mumkin:

iqtisodiyotning davlat va xususiy sektoridagi korrupsiya;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik javobgarlik;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha qonun hujjatlari va tashkilotning ichki hujjatlari talablari va ularni tashkilot faoliyatida qo‘llash tartibi bilan tanishish;

mehnat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va hal qilish;

korrupsiya xavfi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda, xususan, davlat va boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslar tomonidan pora undirish holatlarida o‘zini tutish;

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

12.3. O‘qitishni tashkil qilishda tinglovchilar toifasini hisobga olish kerak. Ta’lim oluvchilarning quyidagi guruhlarida qoida tariqasida ajralib turadi: universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul shaxslar; rahbarlar; faoliyati korrupsiya xavfining yuqori darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan xodimlar, boshqa xodimlar, talabalar. Universitetda o‘quv guruhlarini shakllantirishda muammo yuzaga kelgan taqdirda, guruhlariga bo‘lingan holda o‘qitish yakka tartibda maslahat berish yoki kelishuv asosida boshqa tashkilotlar bilan birgalikda o‘qitish bilan almashtirilishi mumkin.

12.4. O‘tkazish vaqtiga qarab, mashg‘ulotlarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

ishga qabul qilingandan so‘ng darhol korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish;

xodim korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bilan bog‘liq vazifalarni bajarishni nazarda tutuvchi boshqa yuqori lavozimga tayinlanganda malaka oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va mahoratni tegishli darajada ushlab turish maqsadida davriy ravishda o‘qitish;

korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini amalga oshirishda kamchiliklar aniqlangan taqdirda qo‘shimcha o‘qitish, buning sabablaridan biri xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va mahoratni etishmasligi hisoblanadi.

12.5. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha maslahatlar yakka tartibda amalga oshiriladi. Shunda universitetda bunday maslahat uchun mas‘ul shaxslarni belgilanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning alohida masalalari bo‘yicha maslahatlar maxfiy tarzda amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

13. ICHKI NAZORAT VA AUDIT

13.1. Universitetda xo‘jalik operatsiyalari ustidan ichki nazorat amalga oshiriladi.

13.2. Ichki nazorat tizimi faoliyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, ichki nazorat va audit tizimining vazifalariga moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlarining ishonchliligi va haqiqiylikini ta‘minlash, normativ-huquqiy hujjatlar va ichki normativ hujjatlar talablariga rioya etilishini ta‘minlash kiradi. Buning uchun ichki nazorat va audit tizimi universitet tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosat talablarini inobatga oladi, jumladan:

korrupsiyaning oldini olish va oldini olish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘lgan turli tashkiliy tartib va faoliyat qoidalariga rioya etilishini tekshirish;

xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirishni nazorat qilish;

korrupsiya xavfi mavjud bo‘lgan sohalarda olib borilayotgan operatsiyalarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tekshirish.

13.3. Xo‘jalik operatsiyalarini hujjatlashtirishni nazorat qilish, birinchi navbatda, tashkilotning moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlarini yuritish majburiyati bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi qonunbuzarliklarning oldini olish va aniqlashga qaratilgan: norasmiy hisobotlarni tuzish, soxta hujjatlardan foydalanish, mavjud bo‘lmagan xarajatlarni hisobga olish, birlamchi hujjatlarning etishmasligi, hujjatlar va hisobotlardagi tuzatishlar, hujjatlar va hisobotlarni muddatidan oldin yo‘q qilish va boshqalar.

13.4. Korrupsiyaviy xavf sohalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini tekshirish sovg‘alar, vakiliy xarajatlar, xayriya ehsonlari, tashqi shaxslarni rag‘batlantirish va boshqa sohalarda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, noqonuniy harakatlar ko‘rsatkichlari bo‘lgan holatlarning mavjudligiga e‘tibor qaratish lozim, xususan:

xususiyati aniqlanmagan yoki shubhali bo‘lgan xizmatlar uchun to‘lov;

tashqi shaxslarga, davlat mansabdor shaxslariga, nufuzli tashkilotlar xodimlariga va kontragentlarga qimmatbaho sovg'alar taqdim etish, transport, ko'ngilochar xizmatlar uchun haq to'lash, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, boshqa qimmatbaho buyumlar yoki imtiyozlar berish;

vositachiga yoki tashqi shaxsga tashkilot uchun odatiy to'lovdan yoki ushbu xizmat turi uchun to'lovdan oshib ketadigan to'lovni to'lash;

bozor narxlaridan sezilarli farq qiladigan narxlarda sotib olish yoki sotish; shubhali naqd to'lovlar.

13.5. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini kompayens tekshiruvini hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ichki auditi yiliga kamida bir marta amalga oshiriladi.

14. KONTRAGENTLAR VA BOSHQA TASHKILOTLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARDA KORRUPSIYANING OLDINI OLISH CHORALARI

14.1. Universitetda kontragentlar bilan o'zaro munosabatlarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib boriladi:

a) universitet tomonidan kontragentlar bilan munosabatlarda universitetning korrupsion faoliyatga va boshqa vijdotsiz xatti-harakatlarga aralashish xavfini kamaytirish maqsadida kontragentlarni tekshirishning maxsus tartiblari joriy etiladi. Shu jumladan, bunday tekshirish potensial kontragentlar to'g'risidagi ommaviy ma'lumotlarni, xususan ularning biznes hamjamiyatidagi obro'si, bozordagi faoliyat muddati, korrupsiya janjalidagi ishtiroki va boshqa tegishli ma'lumotlar to'plash va tahlil qilishni o'z ichiga olishi mumkin;

b) kontragentlar bilan o'zaro munosabatlarda ularga universitetda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan dasturlar, siyosat, xulq-atvor standartlari, tartib va qoidalar zaruratga ko'ra yetkaziladi. Xususan, kontragentlar bilan tuzilgan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi kurashish standartlariga rioya qilish bo'yicha muayyan qoidalar kiritilishi mumkin.

14.2. Universitetda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilish darajasi va borishi to'g'risida, shu jumladan, tegishli ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda joylashtirish orqali jamoatchilik xabardor qilinadi.

15. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR BILAN HAMKORLIK QILISH

15.1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik universitet tomonidan e'lon qilingan korrupsiyaga qarshi xulq-atvor standartlariga amalda sodiqligining muhim ko'rsatkichidir.

15.2. Universitet xodimlari korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlari to'g'risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

15.3. Universitet o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka tayyorgarlik ko'rish yoki sodir etish to'g'risida ma'lum bo'lgan ma'lumotlar to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bergan o'z xodimlariga va talabalariga nisbatan har qanday jazo choralarini qo'llamaslik majburiyatini oladi.

15.4. Huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik quyidagi shakllarda ham namoyon bo'ladi:

nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatli vakillariga universitet faoliyatini korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tekshirishlarida yordam ko'rsatish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatli vakillariga korrupsiyaga oid jinoyatlarga chek qo'yish yoki tergov qilish, shu jumladan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda yordam ko'rsatish.

15.5. Universitet rahbariyati va uning xodimlariga huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan korrupsiyaga oid faktlarni aniqlash va tergov qilish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar va ma'lumotlarni saqlash hamda huquqni muhofaza qilish organlariga uzatish bo'yicha zarur choralar ko'rishda ko'maklashish zarur. Murojaat materiallari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning so'rovlariga javoblar tayyorlashda ushbu ishga tegishli huquq sohasi mutaxassisleri jalb etiladi.

Rahbariyat va barcha xodimlar sud va huquqni muhofaza qilish organlarining mansabdor shaxslarining o'z xizmat vazifalarini bajarishiga aralashishga yo'l qo'ymasliklari shart.

16. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSAT TALABLARINI BAJARMAGANLIK UCHUN XODIM VA TALABALARNING JAVOBGARLIGI

16.1. Barcha xodimlar (egallab turgan lavozimidan qat'i nazar) va talabalar, ushbu siyosat tamoyillari va talablariga rioya etilishi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgardirlar.